

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlariga taqdim etilgan davlat
ijtimoiy buyurtmalari to‘g‘risida ma’lumot**

(2025–2026-yillar)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi «Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–124-sonli Farmonining 7-bandida har yili vazirlik va idoralar tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish bo‘yicha tanlovlar tashkil etilishi belgilangan.

Mazkur hujjat asosida Suv xo‘jaligi vazirining «Aholi tomorqalarida tomchilatib sug‘orish, yomg‘ir suvlarini yig‘ish, saqlash va ekinlarni sug‘orishda foydalanish» mavzusida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish bo‘yicha davlat ijtimoiy buyurtmasini berish yuzasidan tanlov o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2025-yil 22-apreldagi 73-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Tanlov shartlari vazirlikning rasmiy veb-saytida e‘lon qilindi.

<https://gov.uz/uz/suvchi/news/view/49520>

Tanlovda ishtirok etish uchun jami 20 nafar talabgordan hujjatlar kelib tushdi.

Ishchi guruh tomonidan hujjatlarni o‘rganish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi 14-xatboshisi talablariga muvofiq “Ekosan” ekologiya va salomatlik xalqaro jamoat fondi hamda uning Surxondaryo viloyati hududiy tashkiloti, shuningdek, Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi jamoat birlashmasi hamda “Agroinnovatsiya” jamg‘armasining Farg‘ona viloyati hududiy bo‘limi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar affillangan deb topilib, ko‘rib chiqilmadi.

Tanlov uchun hujjatlarni qabul qilish muddati 2025-yil 1-maydan 30-mayga qadar belgilangan edi.

“Tadbirkor ayol” xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining Konimex tumani hududiy bo‘linmasi, O‘zbekiston “Agrar soha ayollari” uyushmasining Farg‘ona viloyati hududiy bo‘linmasi, Respublika “Istiqbolli avlod” ijtimoiy-axborot markazining Namangan viloyati bo‘limi, Buxoro viloyati Jondor tumani “Qozikenti” MFY, “Tabiat va inson kapitalini rivojlantirish” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, “World Vision” jamoat birlashmasi, “Hayot boshqaruvi” Xorazm viloyati markazi, “ESKULAP” NNT, “HAMROH” NNT, Respublika “Istiqbolli avlod” ijtimoiy-axborot markazining Andijon viloyati bo‘limi hamda Sirdaryo viloyati “Balandchaqir chashmasi” NNT hujjatlari belgilangan muddatdan kech taqdim etilgani sababli ko‘rib chiqilmadi.

Ishchi guruh belgilangan mezonlar asosida “Ekolog” jamoat birlashmasi, Surxondaryo viloyati “Ayol va shodlik” ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish markazi, O‘zbekiston suv resurslaridan mukammal foydalanish “Suvchi” jamoat birlashmasi, O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi, O‘zbekiston agro axborot innovatsiya markazining Surxondaryo viloyati hududiy bo‘limi hamda “Eskulap” NNT tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni baholadi.

Baholash natijalariga ko‘ra, Surxondaryo viloyati “Ayol va shodlik” ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish markazi eng yuqori – 11 ballni qo‘lga kiritdi.

Surxondaryo viloyati “Ayol va shodlik” ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish markazi “Aholi tomorqalarida tomchilatib sug‘orish, yomg‘ir suvlarini yig‘ish, saqlash va ekinlarni sug‘orishda foydalanish” mavzusida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish bo‘yicha davlat ijtimoiy buyurtmasini berish yuzasidan o‘tkazilgan tanlov g‘olibi deb topildi.

“Ayol va shodlik” ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish markazi bilan ijtimoiy buyurtma loyihasini amalga oshirish uchun 99,75 million so‘m ajratish bo‘yicha shartnoma tuzilib, uning ijrosi ta‘minlandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–124-sonli Farmonining 7-bandida har yili vazirlik va idoralar tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish bo‘yicha tanlovlar tashkil etishi belgilangan.

Bunda tanlovlar ustuvor ravishda inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga murossasiz muhitni shakllantirish, shuningdek, ta‘lim, tibbiyot, ekologiya, qurilish, transport, kommunal xo‘jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va boshqa sohalardagi eng dolzarb muammolar yechimiga qaratilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, Farmonning mazkur bandiga muvofiq, fuqarolik jamiyati institutlariga tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarning ta‘sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to‘g‘risida manfaatdor davlat organiga taklif kiritish huquqi berilgan.

Bunda tashabbusli loyiha belgilangan tartibga muvofiq davlat organi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan ijobiy baholangan taqdirda, uning tashabbuskoriga davlat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha bo‘lgan miqdorda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish yo‘li bilan ijtimoiy buyurtma berilishi mumkin.

2026-yilda Suv xo‘jaligi vazirligiga davlat ijtimoiy buyurtmasini olish bo‘yicha 2 ta nodavlat notijorat tashkilotining murojaati kelib tushdi.

Jumladan, “Madad” muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti 2026-yil 28-yanvardagi 01/48-sonli xat bilan murojaat qildi.

Murojaatga mazkur NNTning suv xo‘jaligi sohasida aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy bilimlarini oshirish bo‘yicha tashabbusli loyihani amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to‘g‘risidagi loyiha taklifi, davlat ro‘yxatidan o‘tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi, ustav nusxasi hamda qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma ilova qilingan.

Loyiha aholining suv xo‘jaligi sohasidagi huquqiy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni qamrab olgan.

Loyihani amalga oshirish jarayonida aholi bilan bevosita muloqot shaklida seminar-treninglar, davra suhbatlari va ochiq muloqotlar o‘tkazilishi, huquqiy qo‘llanmalar, bukletlar va infografik materiallar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali suv xo‘jaligi sohasiga oid huquqiy mavzularda maqolalar, chiqishlar va videoroliklar joylashtirilishi rejalashtirilgan.

Loyiha budjeti kelishuv asosida alohida smetada taqdim etilishi va unda loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha xarajatlar, jumladan, mutaxassislar gonorari, o‘quv materiallari, tashkiliy xarajatlar, transport, aloqa va boshqa xarajatlar aks ettirilishi ma’lum qilingan. Biroq jalb qilinadigan mablag‘larning aniq miqdori ko‘rsatilmagan va u kelishuv asosida belgilanishi qayd etilgan.

Shuningdek, “Yuksalish” harakati ham 2026-yil 3-fevraldagi 75/26-sonli xat bilan murojaat qildi. Murojaatga loyiha konsepsiyasi va budjeti ilova qilingan.

“Yuksalish” harakati suv xo‘jaligi sohasidagi keng ko‘lamli transformatsiya jarayonlarini, tizimning zamonaviy va tejamkor sohaga aylanayotganini hamda resurslarni boshqarishdagi shaffoflikni aks ettiruvchi “Yangi O‘zbekistonda suv xo‘jaligi transformatsiyasi” nomli taqdimot videoroligini tayyorlashni taklif etgan.

Loyiha orqali jamiyat va biznes vakillarini suv resurslariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga safarbar etish nazarda tutilgan.

Loyiha konsepsiyasida videorolikni “Yuksalish” harakatining rasmiy axborot kanallarida, bosh axborot kanali – “O‘zbekiston 24” telekanalida hamda hududiy telekanallarda efirga uzatish rejalashtirilgan.

Rejalashtirilgan mediakampaniya natijasida 2 milliondan ortiq aholini qamrab olish koʻzda tutilgan. Loyiha budjetida loyihani 1,5 oy muddatda amalga oshirish nazarda tutilgan.

“Yangi Oʻzbekistonda suv xoʻjaligi transformatsiyasi” nomli taqdimot videoroligini tayyorlash xarajatlari jami 88 million 952 ming 819,2 soʻmni tashkil etishi koʻzda tutilgan.

Suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yil 18-fevraldagi 2-sonli yigʻilish bayoniga muvofiq “Yuksalish” harakatining davlat ijtimoiy buyurtmasini olish boʻyicha “Yangi Oʻzbekistonda suv xoʻjaligi transformatsiyasi” nomli taqdimot videoroligini tayyorlashga qaratilgan tashabbusli loyihasi ijobiy baholandi.

Loyihani amalga oshirish uchun vazirlikning Suv xoʻjaligini rivojlantirish jamgʻarmasi hisobidan 88 million 952 ming 819,2 soʻm mablagʻ ajratish maʼqullandi hamda mazkur miqdordagi mablagʻni ajratishni nazarda tutuvchi toʻgʻridan-toʻgʻri shartnoma tuzildi.

Shartnoma asosida “Yuksalish” harakati bilan suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflik va ochiqlikni kuchaytirishga qaratilgan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar hamkorlikda amalga oshirildi.

Videoroliklar:

Yangi Oʻzbekiston suv xoʻjaligining rivojlanishi

<https://t.me/TGminwater/50234>

Suvni asrash – kelajakni asrashdir!

<https://t.me/TGminwater/50318>

Hisobot beruvchi: Shuhrat Suyunov,

**Suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi oʻrinbosari**